

## X. KORXONALAR VA TASHKILOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)


Korxona va tashkilotlar yagona davlat registri ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilning 1- aprel holatiga ko'ra ro'yxatga olingan yuridik shaxslar soni 112,7 mingtani tashkil qilib, shundan 108,1 mingtasi yoki 96,0 % faoliyat ko'rsatmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlarning asosiy qismi savdo (ro'yxatga olinganlarning umumiy sonidan 29,8 %), sanoat (14,8 %), qurilish (8,3 %) hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (6,5 %) sohalariga to'g'ri keladi.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ro'yxatga olingan hamda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar taqsimoti (2022-yil 1- aprel holatiga ko'ra)

	Ro'yxatga olinganlar		Faoliyat ko'rsatayotganlar	
	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan, foizda</i>	<i>birlik</i>	<i>jamiga nisbatan foizda</i>
<b>Jami</b>	<b>112710</b>	<b>100,0</b>	<b>108106</b>	<b>100,0</b>
shu jumladan:				
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari	1006	0,9	949	0,9
Sanoat	16682	14,8	16025	14,8
Qurilish	9370	8,3	9008	8,3
Savdo	33594	29,8	32272	29,9
Tashish va saqlash	4394	3,9	4242	3,9
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7365	6,5	6950	6,4
Axborot va aloqa	4754	4,2	4569	4,2
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2126	1,9	2060	1,9
Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish	33419	29,7	32031	29,7

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi, foizda (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)**



Toshkent shahrida ro'yxatga olingan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning eng ko'p miqdori 29,9 % savdo sohasida, 14,8% sanoat sohasida, 8,3 % qurilish sohasida, 6,4 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,2 % axborot va aloqa, 3,9 % tashish va saqlash, 1,9 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 0,9 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarida va 29,7 % boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxona va tashkilotlarning soni 98,2 mingta bo'lib, shundan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 81,5 mingta, xususiy korxona 12,0 mingta, oilaviy korxona 3,5 mingta, unitar korxona 0,4 mingta, aksiyadorlik jamiyatlar 0,2 mingta va 0,3 mingta boshqa tijorat korxonalari tashkil etadi.

**Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan tijorat yuridik shaxslarning taqsimoti, birlikda**



2022-yil yanvar–mart oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni 3,8 mingtani tashkil etgan bo'lib, bu o'tgan yilning shu davriga nisbatan 875 taga kamdir.

Jami yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning eng ko'p qismi Chilonzor (489 ta), Yunusobod (450 ta), Mirzo Ulug'bek (414 ta), Olmazor (360 ta), Shayxontohur (358 ta), Yashnobod (349 ta) va Uchtepa (327 ta) tumanlari hissalariga to'g'ri keldi. Aksincha, Mirobod (310 ta), Yakkasaroy (296 ta), Sergeli (242 ta), Yangihayot (119 ta) hamda Bektemir (103 ta) tumanlarida korxona va tashkilotlar tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.


**Korxona va tashkilotlar soni**  
(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)

(birlikda)

	2022- yil 1-aprel holatiga ko'ra ro'yxatga olinganlar	2022- yil yanvar–mart oylarida	
		yangi tashkil topganlar	tugatilganlar
<b>Toshkent shahar</b>	<b>112710</b>	<b>3817</b>	<b>907</b>
<i>tumanlar:</i>			
Uchtepa	9940	327	96
Bektemir	2731	103	18
Yunusobod	14157	450	114
Mirzo-Ulug'bek	12794	414	111
Mirobod	9419	310	89
Shayxontohur	10984	358	77
Olmazor	11398	360	74
Sergeli	5690	242	51
Yakkasaroy	9616	296	85
Yashnabod	9186	349	66
Yangihayot	2389	119	15
Chilonzor	14406	489	111

**2022 -yil 1-aprel holatiga ro'yxatdan o'tgan korxona  
va tashkilotlar soni**

*(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) birlikda*



**2022-yil yanvar–mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha  
yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlarning soni, birlikda**

*(fermer va dehqon xo'jaliklarisiz)*




### Kichik korxona va mikrofirmalar soni

2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik sub'ektlarning soni 96,7 mingdan ziyodni tashkil etgan (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz). Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 96,8 foizni tashkil etdi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi 12408 birlik Chilonzor, 11864 birlik Yunusobod, 10830 birlik Mirzo Ulug'bek, 10110 birlik Olmazor, 9146 birlik Shayxontohur, 8880 birlik Uchtepa hamda 8451 birlik Yakkasaroy tumanlari hissalariga to'g'ri keladi. Faoliyat ko'rsatayotganlarning eng kam qismi esa 7794 birlik Mirobod, 7781 birlik Yashnobod, 4991 birlik Sergeli, 2424 birlik Bektemir hamda 2071 birlik Yangihayot tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

#### 2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning tumanlar kesimida ulushi (foizda)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan jami 96750 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 31907 birligi (33,0 %) – savdoda, 15821 birligi (16,3 %) – sanoatda, 8894 birligi (9,2 %) – qurilishda, 6887 birligi (7,1 %) – yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 4432 birligi (4,6 %) – axborot va aloqa sohasida, 4154 birligi (4,3 %) – tashish va saqlashda, 1779 birligi (1,8 %) – sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 937 birligi (1,0 %) – qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklarida, shuningdek 21939 birligi (22,7 %) – boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan  
kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, foizda  
2022–yil 1-aprel holatiga**




Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va sanoat faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari turlariga to'g'ri keladi.


### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatga olingan korxona soni 8370 birlikni tashkil etdi. O'tgan yilga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning soni 864 taga yoki 10,3 % ga o'sgan. Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonadan 3060 tasi qo'shma korxona, 5060 tasi esa xorijiy korxona hisoblanadi.

### Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning o'sish dinamikasi, birlikda




### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda 2022-yil 1-aprel holatiga



2022-yil yanvar–mart oylarining yakuni bo'yicha xorijiy kapital ishtirokidagi 340 ta korxona yangi tashkil qilindi. Korxonaning soni o'tgan yilga nisbatan 27 taga kam. Bunda, Rossiya federatsiyasi rezidentlarining kapitali ishtirokidagi korxona soni – 77 tani, Turkiya Respublikasi – 53 tani, Qozog'iston Respublikasi – 39 tani, Xitoy Xalq Respublikasi – 28 tani hamda Koreya Respublikasi – 8 tani tashkil qildi. Shuningdek, 2022 yilda Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari hamkorlik qilishga qiziqish bildirdilar.

**Xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil topgan korxonalarning  
davlatlar kesimidagi soni, birlikda  
2022- yil yanvar–mart oylarida**




Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonaning asosiy qismi savdo va sanoat faoliyat turiga to'g'ri keladi, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaliklari faoliyat turiga to'g'ri keladi.

**Oilaviy korxonalar soni**


2022-yil 1-aprel holatiga ko'ra yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni 3752 birlikni tashkil etdi, ulardan 3552 birlik yoki 94,7 % faoliyat yuritmoqda.

### Oilaviy korxonalar soni, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning soni ko'rilganda oilaviy korxonalarning 35,0 % yoki 1243 tasi sanoat, 25,8 % yoki 917 tasi savdo, 18,4 % yoki 653 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 2,3 % yoki 81 tasi qishloq o'rmon va baliq xo'jaliklari, 1,5 % yoki 53 tasi axborot va aloqa, 1,3 % yoki 48 tasi qurilish, 1,6 % yoki 56 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,0 % yoki 36 tasi tashish va saqlash hamda 13,1 % yoki 465 tasi boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri kelmoqda.

### 2022-yil 1- aprel holatiga iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning ulushi, foizda



2022-yil 1-aprel holatiga iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarning sonini ko'rilganda eng katta soni sanoat va savdoda, eng kichik soni esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda tashish va saqlash xizmatlari sohasiga to'g'ri keladi.